

“TASDIQLAYMAN”

O‘zR FA O‘MKI direktori



akad. Sh.Sh. Sagdullayev

2026-yil 28 -avgust

06.01.09 – «O‘simliklarni himoya qilish» ixtisosligi bo‘yicha stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura (PhD) va doktorantura (DSc)ga qabul qilish uchun ilmiy tadqiqot ishi taqdimotini baholash dasturi va mezonlari

1. UMUMIY QOIDALAR

Ushbu dastur 06.01.09 – «O‘simliklarni himoya qilish» ixtisosligi bo‘yicha stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura (PhD) va doktorantura (DSc)ga qabul qilishda talabgorning ilmiy tadqiqot ishi taqdimotini baholashning mazmuni va mezonlarini belgilaydi. Dastur dorivor va qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirish texnologiyasi, hosilning shakllanishi, hosildorlik va mahsulot sifatini oshirish, resurs tejamkor texnologiyalar. Oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha talabgorlarning nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari va ilmiy-tadqiqot salohiyatini kompleks baholashga qaratilgan.

Dasturning asosiy maqsadi talabgorlarning o‘simlikshunoslik sohasidagi fundamental nazariy va amaliy bilimlari, qishloq xo‘jaligi ekinlarining o‘sishi va rivojlanish qonuniyatlari, hosilning shakllanishi va uning tarkibiy tuzilishiga ta’sir etuvchi omillar, qishloq xo‘jaligi va dorivor ekinlarni yetishtirishning zamonaviy texnologiyalari, urug‘chilik asoslari, o‘simliklarning oziqlanishi va suv rejimi, hosildorlik hamda o‘simlik mahsulotlari sifatini oshirish usullari, resurs tejamkor va ekologik xavfsiz texnologiyalar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini, shuningdek, ilmiy ma’lumotlarni tahlil qilish va talqin eta olish qobiliyatini aniqlashdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 10-apreldagi PF–58-son Farmoniga muvofiq, 2027-yildan boshlab oliy ta’limdan keyingi ta’lim (tayanch doktorantura va doktorantura)ga qabulning yangi tartibi joriy etiladi. Unga ko‘ra, talabgorlarni qabul qilish ularning umumiy reyting bali asosida amalga oshiriladi. Bunda magistratura (yoki unga tenglashtirilgan ta’lim) davridagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari, nashr etilgan ilmiy ishlari uchun

berilgan ballar hamda xorijiy tilni bilish darajasini tasdiqlovchi milliy yoki xalqaro sertifikatlar bo'yicha to'plangan ballar inobatga olinadi. Talabgorlarning umumiy ballari ketma-ketligi asosida kirish imtihonlarisiz to'g'ridan-to'g'ri tayanch doktorantura va doktoranturaga qabul qilish amaliyoti joriy etiladi.

2. DASTUR MAZMUNI

I bo'lim. O'simliklarni himoya qilish asoslari va fitosanitar monitoring

- zararli organizmlar va ularning tasnifi;
- ekinlarning fitosanitar holati;
- zararkunandalar va kasalliklarni aniqlash hamda hisobga olish usullari;
- zararlanishning iqtisodiy chegarasi.

II bo'lim. Qishloq xo'jaligi ekinlarining zararkunandalari va ularga qarshi kurash usullari

- hasharotlar, kanalar, nematodalar va boshqa zararkunandalarning asosiy guruhlari;
- zararkunandalarning biologiyasi va ekologiyasi;
- qishloq xo'jaligi ekinlarining shikastlanishi;
- agrotexnik, mexanik, biologik va kimyoviy kurash usullari;
- o'simliklarni uyg'unlashtirilgan (integratsiyalashgan) himoya qilish.

III bo'lim. O'simlik kasalliklari, ularni diagnostika qilish va himoya qilish usullari

- yuqumli (infeksion) va yuqumsiz (noinfeksion) kasalliklar;
- fitopatogen zamburug'lar, bakteriyalar, viruslar va fitoplazmalar;
- kasalliklar diagnostikasi;
- epidemiologiya va kasalliklarning tarqalish sharoitlari;
- profilaktika va himoya tadbirlari.

IV bo'lim. O'simliklarni kimyoviy va biologik himoya qilish

- pestitsidlar tasnifi;
- fungitsidlar, insektitsidlar, gerbitsidlar va boshqa preparatlarning ta'sir qilish mexanizmlari;
- zararli organizmlarning preparatlarga chidamliligi (rezistentligi);
- biologik himoya vositalari, entomofaglar va mikroorganizm-antagonistlar.

V bo'lim. Qishloq xo'jaligi ekinlarini integratsiyalashgan (uyg'unlashtirilgan) himoya qilish tizimi

- agrotexnik, seleksion, biologik va kimyoviy usullarning uyg'unligi;
- donli, don-dukkakli, texnik, sabzavot va mevali ekinlarni himoya qilish;
- ekologik va fitosanitar xavfsizlik;
- agrotsenozlarning fitosanitar holatini monitoring qilish va boshqarishning zamonaviy texnologiyalari.

3. TAVSIYA ETILADIGAN ASOSIY ADABIYOTLAR

1. O‘simlikshunoslik» (Растениеводство) — Atabaeva H.N., Qodirxo‘jaev O.K.
2. Dehqonchilik va o‘simlikshunoslik» (Земледелие и растениеводство) — Atabaeva H.N., Yormatova D.Y. va boshqalar.
3. O‘simlikshunoslikdan amaliy mashg‘ulotlar» (Практикум по растениеводству) — Atabaeva H.N., Umarova M. va boshqalar.
4. Moyli va tolali ekinlar yetishtirish texnologiyasi— Yormatova D.Y.
5. Dorivor o‘simliklar yetishtirish texnologiyasi» — Yuldashev X.X., Toxtayev B.O. va boshqalar.
6. «Растениеводство» — Посыпанов Г.С., Долгодворов В.Е. и др.

4. BAHOLASH MEZONI

2027-yil uchun stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura (PhD) va doktorantura (DSc)ga qabul qilish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 26-maydagi PF–98-son Farmoni hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 337-son buyrug‘i talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

Mazkur hujjatlarga asosan, ilmiy kadrlar tayyorlashning ustuvor yo‘nalishlariga oid ixtisosliklar bo‘yicha talabgorlarni qabul qilishda kirish imtihonlari o‘tkazilmaydi. Bunda talabgorlarning ilmiy salohiyati va tadqiqot olib borish qobiliyati ularning ilmiy tadqiqot ishlari taqdimoti asosida baholanadi.

Shunga ko‘ra, 2027-yilda ustuvor yo‘nalishlarga oid ixtisosliklar bo‘yicha stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura va doktoranturaga qabul jarayoni kirish imtihoni o‘rniga ilmiy tadqiqot ishi taqdimotini baholash natijalari asosida tashkil etiladi.

Umumiy qoidalar

1. Ilmiy tadqiqot ishi taqdimoti talabgorning tanlangan ixtisoslik bo‘yicha ilmiy salohiyati, tadqiqot olib borish ko‘nikmalari va ilmiy faoliyatga tayyorgarligini baholash maqsadida o‘tkaziladi.
1. Taqdimot tayanch doktorantura (PhD) va doktorantura (DSc)ga hamda stajyor-tadqiqotchilikka qabul qilish jarayonining asosiy baholash bosqichi hisoblanadi.

2. Taqdimot davlat tilida yoki ingliz tilida amalga oshirilishi mumkin.

Taqdimot mazmuniga qo'yiladigan talablar

Talabgor quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga olgan ilmiy tadqiqot loyihasini taqdim etadi:

- tadqiqot mavzusi;
- mavzuning dolzarbligi;
- muammoning o'rganilganlik darajasi va adabiyotlar tahlili;
- tadqiqot maqsadi va vazifalari;
- tadqiqot obyekti va predmeti;
- ilmiy yangiligi;
- tadqiqot metodologiyasi;
- kutilayotgan ilmiy natijalar;
- natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati;
- tadqiqotni amalga oshirish rejasi;
- foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Taqdimot shakliga qo'yiladigan talablar

1. Taqdimot PowerPoint yoki boshqa elektron formatda tayyorlanadi.
1. Taqdimot hajmi 8–12 slayddan iborat bo'lishi tavsiya etiladi.
2. Talabgorning ma'ruzasi 10–15 daqiqadan oshmasligi lozim.
3. Savol-javob uchun 5–10 daqiqa ajratiladi.

Ilmiy tadqiqot ishi taqdimotini baholash mezonlari (50 ballik tizim)

№	Baholash mezonlari	Maksimal ball
1	Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va ustuvor yo'nalishlarga mosligi	10
2	Tadqiqot maqsadi, vazifalari hamda ilmiy muammoning aniq qo'yilganligi	10

№	Baholash mezonlari	Maksimal ball
3	Tadqiqotning ilmiy yangiligi va kutilayotgan natijalari	10
4	Tadqiqot metodologiyasining asoslanganligi va amalga oshirish imkoniyati	10
5	Natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati	10
	Jami	50

Baholash natijalari

1. 43–50 ball — A'lo
2. 36–42 ball — Yaxshi
3. 28–35 ball — Qoniqarli
4. 0–27 ball — Qoniqarsiz

Tavsiya etish mezonlari

Ilmiy tadqiqot ishi taqdimoti natijalariga ko'ra 28 ball va undan yuqori natija to'plagan talabgorlar qabul tanlovining keyingi bosqichida ishtirok etish uchun tavsiya etiladi.

Komissiya tarkibi

Taqdimot natijalari qabul komissiyasi tomonidan baholanadi. Har bir komissiya a'zosi mazkur mezonlar asosida mustaqil baho qo'yadi. Yakuniy natija komissiya a'zolari tomonidan qo'yilgan ballarning o'rtacha arifmetik qiymati asosida aniqlanadi.

Yakuniy qoidalar

1. Ilmiy tadqiqot ishi taqdimoti qabul komissiyasi tomonidan tasdiqlangan jadval asosida o'tkaziladi.
1. Taqdimot materiallarida akademik halollik tamoyillariga qat'iy rioya qilinishi shart.
2. Plagiat aniqlangan taqdirda talabgorning hujjatlari ko'rib chiqishdan chiqariladi.

Eslatma: muassasaning ichki nizomiga muvofiq o'tish balli (minimal to'plash zarur bo'lgan ball) alohida belgilanadi. Ushbu dastur va baholash mezoni tegishli kafedra/ilmiy kengash tomonidan ko'rib chiqilib tasdiqlanishi lozim.